



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 330 sahifa,
22-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

| | |
|--|----|
| Matematika fanini o'qitishda kommunikativ va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar | 10 |
| <i>Esonturdiyev Mamatqobil Nurmamatovich</i> | |
| Geografik axborot tizimlari (GAT) texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish metodikasi | 13 |
| <i>Bahromova Muhayyo Imomqul qizi</i> | |
| Geografiya ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari | 18 |
| <i>Tuyg'unov Murodjon Salimqul o'g'li</i> | |
| Biologiyani o'qitishda belgili-ramziy ko'rgazmalilik vositalaridan foydalanishning o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishdagi roli | 22 |
| <i>Azimov I. T., Daminova F. A.</i> | |
| PISA 2025 doirasida raqamli ta'lim kompetensiyalarini baholashning innovatsion mexanizmlari | 25 |
| <i>Doniyorov Muxiddin Normamatovich, Ishanov Almat Adilxanovich</i> | |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy savodxonligini oshirishda zamonaviy pedagogik vositalarni qo'llash | 28 |
| <i>Abdunazarov Bobir Normurodovich</i> | |
| Raqamli ta'lim resurslari asosida kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish | 32 |
| <i>Jumayeva Ra'no To'ychi qizi</i> | |
| Oila va maktab integratsiyasining shaxs kamolotiga ta'siri | 36 |
| <i>Rasulova Dildora Shuhratovna, Raxmatova Zulxumor Alimovna</i> | |
| Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati | 40 |
| <i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i> | |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani shakllantirishda tabiiy fanning o'rni | 43 |
| <i>G'afforova Zarnigor Abdumo'min qizi</i> | |
| Umumiy o'rta ta'limda o'qituvchi va ota-onalar ijtimoiy hamkorligini rivojlantirish | 47 |
| <i>Xalikova Zaxro Mirshadmanovna, Xolbo'tayev Muzaffar Odilovich, Bozorova Xadicha Javlon qizi</i> | |
| Nutqida kechikish kuzatiladigan bolalarda nutqni qo'l va barmoq motorikasini rivojlantiruvchi o'yinlar orqali shakllantirish | 51 |
| <i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Fotima Adizovna</i> | |
| Taym menejment asosida bo'lajak o'qituvchilarda liderlik fazilatlarini rivojlantirish | 55 |
| <i>Soliyeva Ruxsora Sharobiddin qizi</i> | |
| Sun'iy intellekt va NLP texnologiyalari asosida elektron ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish | 58 |
| <i>Otakishiyeva Gulshano Abdulaziz qizi</i> | |
| Pedagogik kvalimetriya asosida bo'lajak o'qituvchilarning diagnostik madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslari | 61 |
| <i>G'aniyeva Muattarxon Nodirbek qizi</i> | |
| Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты | 64 |
| <i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i> | |
| Yosh erkin kurashchilarda chidamlilikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish | 69 |
| <i>Ergashov Qaxramonjon Asqarovich</i> | |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy masalalar yechishga o'rgatish usullari | 76 |
| <i>G'iyosova Dilovar Orif qizi</i> | |
| Haykaltaroshlik fanining metodik qo'llanilishi | 80 |
| <i>Qodirov Bobirjon Botirjonovich</i> | |
| Ijtimoiy xavf ostidagi bolalarni qo'llab-quvvatlashning jahon tajribasi va psixologik-pedagogik asoslari | 85 |
| <i>Manzura Qosmuratova</i> | |



| | |
|--|-----|
| Jahonda art-biznes klasterlarining ahamiyati va rivojlanish tuzilmasi..... | 89 |
| A. S. Umarov | |
| Автоматизация решения сложных математических задач графическим методом для углублённого изучения математики в школе | 92 |
| Эргашев Серожиддин Султонмуродович, Маматов Ислombек Ильесович | |
| Pedagogika darslarida raqamli va onlayn didaktik o'yinlardan foydalanish..... | 97 |
| Qodirova Feruzaxon Abdiyaminovna | |
| Sun'iy intellekt va tanqidiy fikrlashning kognitiv-konseptual komponenti va uni rivojlantirish metodikasi | 102 |
| Sobirova Munavvarxon Qaxramonjon qizi | |
| Media savodxonlik va axborot madaniyati fanida sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari | 106 |
| Ermatov Sherzodbek Latipjonovich, Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich | |
| Adabiy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv | 111 |
| To'ychiyeva Mahfuza Umarkulovna, Islomova Shalola Ismoil qizi | |
| Comparative Study of Passive Constructions in English and Their Translation Into Uzbek..... | 117 |
| Elmirzayeva Maftuna Dusmurod qizi, Mustafoyeva Nigina Shuhrat qizi | |
| Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish orqali pedagogik mas'uliyatni shakllantirishning dolzarb muammolari | 122 |
| Botirova Odinaxon Abdumutalib qizi | |
| Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik modeli va metodik asoslari | 126 |
| Haytbayeva S. R. | |
| Imkoniyati cheklangan bolalarni psixologik qo'llab-quvvatlash orqali intellektual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari..... | 131 |
| Kadirova Nigora Saxibjanovna | |
| Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini dual ta'lim asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy asoslari..... | 134 |
| Samiyeva Zuleyxa Uktamovna | |
| Insonlar orasidagi munosabatlarda noverbal muloqotning komponentlarining ko'rinishlari | 139 |
| Soliyev Farxodjon Sodikovich, Karimov Jahongirjon Murodjon o'g'li | |
| Virtual texnologiyalar vositasida texnika fanlarini o'qitish mazmunini innovatsion rivojlantirish | 145 |
| Yuldasheva Dilorum Husniddin qizi | |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida suzish mashg'ulotlarini tashkil etish texnologiyasi..... | 150 |
| Toshpulatova Aziza Toyirovna | |
| Harbiy xizmatchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslari | 155 |
| Tursunov Shaxzod Ramazonovich, Mansurov Sardorbek Sirojiddin o'g'li | |
| O'qituvchilar ruhiy salomatligini saqlashning amaliy strategiyalari | 159 |
| Begmatov Raximkul Olimovich | |
| Ona tili darslarida analitik faoliyatni tashkil etish imkoniyatlari | 164 |
| Narziyeva Mastura Sunnatovna | |
| Maktabgacha ta'limda Project-Based learning texnologiyasi asosida tarbiyalanuvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari | 168 |
| Kubayeva Mavluda, Po'latova Gullola Ravshan qizi | |
| Talabalarda iqtisodiy savodxonlikni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari | 173 |
| Qo'chqorov Nodir Bozorovich | |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarini baholash jarayonida foydalaniladigan texnologiyalar va vositalar | 178 |
| A'zamqulova Zilola Sunnat qizi | |
| Raqamli ta'lim muhitida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning didaktik asoslari..... | 183 |
| Isaboyeva Dilyora Zokirjon qizi | |
| Kimyo fanining tarixiy rivojlanishida metodologik yondashuvlar | 187 |
| Begamov Shaxzod To'liqin o'g'li | |
| Sport bilan shug'ullanishda qo'l va oyoq motorikalarini rivojlantirish mezonlari | 190 |
| Imomov Asliddin Abdurazoqovich, Sattarov Qarshiboy Narqulovich | |

| | | |
|-------------------------------------|---|-----|
| MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS | O'zbek va ingliz tillarida zamon kategoriyasining qiyosiy tahlili..... 194 <i>Xudoyberdiyeva Dilfuza Alisher qizi</i> | 194 |
| | Hayot faoliyati xavfsizligi fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligi va rejalashtirish faoliyati..... 198 <i>Maxmudov Baxtiyor Xayrullayevich</i> | 198 |
| | Dizartriyali bolalarda motorikani rivojlantirish – nutqni rivojlantirishning asosiy omili 202 <i>Mamatova Muzayyana Batirovna</i> | 202 |
| | Expression of Lexical Economy in English and Uzbek Through Stylistic Means 205 <i>Omonov Baxtiyor Uktamovich</i> | 205 |
| | Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy qobiliyatni shakllantirish..... 208 <i>Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Xamzayeva Sunbula Jasurovna</i> | 208 |
| | Xushmuomalalik strategiyalarining ijtimoiy vazifalari..... 212 <i>Alieva Navruza Xabibullayevna, Azizova Sanobarxon Valijon qizi</i> | 212 |
| | Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shaxslilik sifatlarining kasbiy rivojlanishdagi psixologik ahamiyati 216 <i>Dusmetova Maksuda Matnazarovna</i> | 216 |
| | Maktabgacha ta'lim jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning ilustrativ yondashuv asosida kreativ va variativ faoliyat olib borish usullari va yo'llari..... 221 <i>Egamberdiyeva Madina Sharif qizi</i> | 221 |
| | Pragmatic Functions in Neurolinguistic Communication 224 <i>Fayziyeva Parvina</i> | 224 |
| | Sahro gavhari: ruslar istilosigacha bo'lgan davrda Xiva me'morchiligi tarixi 227 <i>Islomjon Xoljigitovich Mirzakulov</i> | 227 |
| | Moslashuvning psixologik mexanizmlari: ta'lim muhiti sharoitida shaxsning adaptatsiyasi..... 235 <i>Jaynarova Sayyora Isoqul qizi, Nuraliyeva Nasiba</i> | 235 |
| | Onalik psixologiyasi va o'rganishning nazariy jihatlari..... 238 <i>Kasimova Xulkar Atabayevna</i> | 238 |
| | Spheres of Language Use..... 243 <i>Kumakbayeva Gulbanu Kuntuarovna</i> | 243 |
| | Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida kreativ tafakkurni rivojlantirishda nostandart topshiriqlar metodikasi..... 246 <i>Muxammadiyeva Dinora Tursunpulatovna</i> | 246 |
| | Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari va didaktik tamoyillari..... 251 <i>N. Jurayev</i> | 251 |
| | Dunyo bolalari huquqlarini himoya qilish: global muammolar, tizimli kamchiliklar va tanqidiy tahlil 255 <i>Nargiza Ergasheva</i> | 255 |
| | Talabalarining dasturlashga oid agoritmik fikrlashini rivojlantirish orqali innovatsion faoliyatga tayyorlash usuli 259 <i>Orziqulova Barchinoy Ixtiyor qizi</i> | 259 |
| | Talabalarda o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining tuzilmasi va psixologik komponentlari (motivatsion, kognitiv, irodaviy, emotsional-regulyativ komponentlar) 264 <i>Otabekova Nargiza Avazbek qizi</i> | 264 |
| | O'zbek va ingliz tillaridagi metaforalarda til va madaniyat uyg'unligi 269 <i>Rasulova Munajat Akmaljonovna</i> | 269 |
| | Limitlar nazariyasini kompyuter imitatsion modellar vositasida o'qitish metodikasi..... 273 <i>Safarov Abbas Abdurasul o'g'li</i> | 273 |
| | Ijtimoiy hamkorlik – barkamol avlodni tarbiyalash poydevori..... 278 <i>Sharipova Gulruxsor Nurkabilovna</i> | 278 |
| | Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati..... 282 <i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i> | 282 |
| | Badiiy gimnastika mashg'ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish 285 <i>Tuxtayeva Azizabonu Abdurasulovna</i> | 285 |



| | |
|--|-----|
| Matematika fanini o'zlashtirishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining semiotik yondashuvini shakllantirish ... 289 <i>Xayrullayev Ismatulla Nurullayevich</i> | 289 |
| Pedagogik qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish 293 <i>Xoliqova Inobatxon Bo'ri qizi</i> | 293 |
| Umumta'lim maktabida elektron axborot-ta'lim resurslari..... 296 <i>Xolmurodov Shuxrat Okboevich, Norqobilov Hakimbek Nuriddin o'g'li</i> | 296 |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolaning kreativligini shakllantirishda innovatsion muhit 300 <i>Xonnazarova Gulasal Yusuf qizi</i> | 300 |
| Ta'lim tizimida sinf rahbari faoliyatining joriy etilishining tarixiy asoslari va zamonaviy ko'rinishlari 303 <i>Xusenova Sadoqat Botirovna</i> | 303 |
| Искусственный интеллект в методике преподавания русского языка: адаптивная обратная связь и развитие коммуникативной компетенции 308 <i>Джалилова Феруза Намазовна</i> | 308 |
| Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты..... 312 <i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i> | 312 |
| Межкультурный диалог как инструмент воспитания гармоничной личности в школе 317 <i>Махмудхожаев Ориф Бахтиёрович</i> | 317 |
| Психологические факторы успешности профессионального обучения студентов 319 <i>Рахимходжаева В. С.</i> | 319 |
| Специфика восприятия окружающего мира в лирике Афанасия Фета 325 <i>Татьяна Викторовна Половинкина</i> | 325 |



PEDAGOGIKA DARSLARIDA RAQAMLI VA ONLAYN DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH



Qodirova Feruzaxon Abdiyaminovna

Andijon davlat pedagogika instituti
 Magistratura yo'nalishi Pedagogika 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Pedagogika yo'nalishidagi talabalarni o'qitish jarayonida raqamli va onlayn didaktik o'yinlardan foydalanishning nazariy hamda amaliy jihatlari tahlil qilingan. Zamonaviy ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim jarayoniga yangi metod va vositalarni tatbiq etishni talab etmoqda. Xususan, didaktik o'yinlar ta'limning interaktivligini oshirish, talabalarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda ta'lim samaradorligini yuksaltirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Raqamli va onlayn didaktik o'yinlarning pedagogik imkoniyatlari, ularning ta'lim jarayonidagi o'rni, talabalarning motivatsiyasiga ta'siri, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi ahamiyati hamda pedagogik kompetensiyalarni shakllantirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, didaktik o'yinlardan foydalanishning afzalliklari, mavjud muammolari va istiqbolli yo'nalishlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: pedagogika, didaktik o'yinlar, raqamli texnologiyalar, onlayn ta'lim, interaktiv metodlar, innovatsion pedagogika, motivatsiya, ta'lim samaradorligi, raqamli savodxonlik, kreativ fikrlash.

Abstract: The theoretical and practical aspects of using digital and online didactic games in teaching students in the field of pedagogy are analyzed. The rapid development of innovative technologies in modern education requires the implementation of new methods and tools in the educational process. In particular, didactic games serve as an important means of increasing educational interactivity, developing students' independent thinking skills, and improving learning effectiveness. The pedagogical potential of digital and online didactic games, their role in the educational process, their impact on student motivation, their significance in developing creative and critical thinking, and their contribution to the formation of pedagogical competencies are highlighted. In addition, the advantages, existing challenges, and future prospects of using didactic games are discussed.

Key words: pedagogy, didactic games, digital technologies, online education, interactive methods, innovative pedagogy, motivation, educational effectiveness, digital literacy, creative thinking.

Аннотация: Проанализированы теоретические и практические аспекты использования цифровых и онлайн-дидактических игр в процессе обучения студентов педагогического направления. Стремительное развитие инновационных технологий в современной системе образования требует внедрения новых методов и средств в образовательный процесс. В частности, дидактические игры выступают важным инструментом повышения интерактивности обучения, развития навыков самостоятельного мышления студентов и повышения эффективности образовательного процесса. Освещены педагогические возможности цифровых и онлайн-дидактических игр, их роль в образовательном процессе, влияние на мотивацию студентов, значение в развитии творческого и критического мышления, а также роль в формировании педагогических компетенций. Кроме того, рассмотрены преимущества, существующие проблемы и перспективы использования дидактических игр.

Ключевые слова: педагогика, дидактические игры, цифровые технологии, онлайн-образование, интерактивные методы, инновационная педагогика, мотивация, эффективность образования, цифровая грамотность, креативное мышление.

KIRISH

Bugungi globallashtirish va axborotlashuv davrida ta'lim tizimi oldiga yangi va murakkab vazifalar qo'yilmoqda. Jamiyatning barcha sohalarida raqamli texnologiyalar keng qo'llanilayotgani sababli ta'lim tizimi ham zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida takomillashib bormoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bugungi pedagog nafaqat o'z fanini mukammal bilishi, balki ta'lim jarayonida innovatsion va interaktiv metodlardan samarali foydalana olishi kerak.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, didaktik o'yinlar ta'lim samaradorligini oshirishning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Didaktik o'yinlar o'quvchilarning bilim olish jarayonini qiziqarli, faol va samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Ayniqsa, raqamli va onlayn didaktik o'yinlar zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ular yordamida talabalar mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil qilish, muammolarni hal etish, tezkor qaror qabul qilish kabi ko'nikmalarni egallaydilar.

Raqamli didaktik o'yinlar o'zining interaktivligi, vizualligi va qiziqarli muhiti bilan talabalarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi. O'yin elementlari orqali tashkil etilgan darslar talabalarni faol ishtirok etishga undaydi, bu esa bilimlarni samarali o'zlashtirishga yordam beradi. Shuningdek, onlayn platformalar orqali tashkil etilgan o'yinlar masofaviy ta'lim jarayonida ham muhim rol o'ynaydi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va internet tarmoqlarining jadal rivojlanishi ta'lim tizimiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash, ayniqsa, pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarni zamonaviy metodlar asosida tayyorlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki bo'lajak pedagog nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'lishi, balki raqamli vositalar va interaktiv metodlardan samarali foydalanish ko'nikmalarini ham egallashi zarur.

Shu nuqtai nazardan, raqamli va onlayn didaktik o'yinlar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, talabalar motivatsiyasini kuchaytirish, mustaqil va kreativ fikrlashni rivojlantirishda muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, masofaviy va aralash ta'lim shakllarining kengayishi raqamli didaktik o'yinlardan foydalanish zaruratini yanada oshirdi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, pedagogika yo'nalishidagi talabalarni zamonaviy pedagogik kompetensiyalar asosida tayyorlashda raqamli didaktik o'yinlarning imkoniyatlari yetarli darajada ilmiy tahlil qilinishi hamda ularni amaliyotga samarali tatbiq etish masalalari muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot obyekti

Pedagogika yo'nalishidagi talabalarning ta'lim jarayoni.

Tadqiqot predmeti

Pedagogika darslarida raqamli va onlayn didaktik o'yinlardan foydalanish jarayoni hamda uning ta'lim samaradorligiga ta'siri.

Tadqiqot maqsadi

Pedagogika darslarida raqamli va onlayn didaktik o'yinlardan foydalanishning pedagogik ahamiyatini o'rganish, ularning ta'lim samaradorligiga ta'sirini tahlil qilish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari:

- raqamli va onlayn didaktik o'yinlarning nazariy asoslarini o'rganish;
- pedagogika darslarida qo'llanilayotgan raqamli platformalarni tahlil qilish;
- didaktik o'yinlarning talabalar motivatsiyasiga ta'sirini aniqlash;
- talabalarda kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi rolini baholash;
- didaktik o'yinlardan foydalanishdagi muammolar va istiqbollarni aniqlash.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli va onlayn didaktik o'yinlardan foydalanish masalasi xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Xususan, xorijiy tadqiqotchilar orasida M. Prensky, K. Werbach, J. Gee, M. Malone kabi olimlar o'yin texnologiyalarining ta'limdagi o'rni hamda gamifikatsiya elementlarining pedagogik samaradorligini ilmiy jihatdan asoslab berganlar.

Amerikalik olim Marc Prensky "Digital Game-Based Learning" asarida raqamli o'yinlarning yoshlar tafakkuriga ta'siri hamda ta'lim motivatsiyasini oshirishdagi rolini tahlil qilgan. Uning fikricha, zamonaviy talabalar raqamli muhitda tezroq va samaraliroq bilim oladilar.

James Paul Gee esa o'yinlar orqali o'rganish konstruktivistik yondashuvga asoslanishini ta'kidlab, didaktik o'yinlarning muammoli vaziyatlarni hal qilish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi ahamiyatini qayd etgan.

Shuningdek, Karl Kapp gamifikatsiyaning ta'limdagi ahamiyatini o'rganib, o'yin elementlari yordamida talabalar faolligi hamda bilimlarni o'zlashtirish darajasi oshirishini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Mahalliy olimlardan B. Kuchkarov, S. Abdullayev, A. Mirzayev, M. Jumaniyozov, J. Yo'ldoshev va R. Usmonovlarning ilmiy ishlari pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar hamda raqamli ta'lim vositalariga bag'ishlangan.



B. Kuchkarov pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida samarali qo'llashning metodik asoslarini yoritgan bo'lsa, S. Abdullayev raqamli o'yinlarning ta'lim sifatiga ta'sirini tahlil qilgan. A. Mirzayev esa onlayn ta'lim jarayonida didaktik o'yinlarning samaradorligini o'rganib, ularning masofaviy ta'limdagi ahamiyatini ko'rsatib bergan.

Mazkur tadqiqotning o'ziga xosligi shundaki, unda pedagogika yo'nalishidagi talabalar misolida raqamli va onlayn didaktik o'yinlarning nafaqat motivatsion, balki pedagogik kompetensiyalarni shakllantirishdagi roli kompleks tarzda tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy raqamli platformalarning amaliy imkoniyatlari ham yoritiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolani tayyorlash jarayonida bir qator ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Jumladan, qiyosiy-taqqoslash metodi, pedagogik kuzatish metodi, tahlil va sintez metodi, statistik tahlil metodi hamda umumlashtirish metodidan foydalanildi. Qiyosiy-taqqoslash metodi orqali an'anaviy ta'lim metodlari hamda raqamli didaktik o'yinlarga asoslangan ta'lim usullari o'zaro solishtirildi. Natijada, raqamli o'yinlar asosida tashkil etilgan darslarda talabalar faolligi va motivatsiyasi yuqori bo'lishi aniqlandi. Pedagogik kuzatish metodi yordamida pedagogika yo'nalishi talabalarining o'quv jarayonidagi ishtiroki, interaktiv topshiriqlarga munosabati hamda mustaqil fikrlash ko'nikmalari kuzatildi. Statistik tahlil metodidan foydalanish orqali talabalar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari umumlashtirildi va foiz ko'rsatkichlari asosida tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan 100 nafar talaba o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, talabalar raqamli didaktik o'yinlarning dars samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlagan.

1-jadval: Talabalarning raqamli didaktik o'yinlarga munosabati

| Ko'rsatkich | Foiz (%) |
|--|----------|
| Darsga qiziqish oshdi | 88 % |
| Mustaqil fikrlash rivojlandi | 82 % |
| Mavzuni tezroq o'zlashtirdi | 79 % |
| Jamoaviy ishlash ko'nikmasi shakllandi | 74 % |
| Raqamli savodxonlik oshdi | 91 % |

Tahlil natijalariga ko'ra, raqamli didaktik o'yinlardan foydalanish talabalarning darsga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshirgan. Ayniqsa, "Kahoot", "Quizizz" va "Wordwall" platformalaridan foydalanilgan darslarda talabalar faolligi yuqori bo'lgan. Shuningdek, o'yin elementlari asosida tashkil etilgan topshiriqlar talabalarning tezkor fikrlashi, muammoni hal etishi, mantiqiy xulosa chiqarishi hamda kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirgani aniqlandi. Biroq, tadqiqot davomida ayrim muammolar ham kuzatildi. Jumladan, internet tezligining pastligi, texnik vositalarning yetarli emasligi hamda ayrim o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasining sustligi qayd etildi. Bu esa raqamli didaktik o'yinlardan foydalanishda infratuzilma va metodik tayyorgarlik muhim ekanligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli va onlayn didaktik o'yinlar pedagogika darslarining samaradorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Ular talabalarning motivatsiyasini oshiradi, mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi hamda zamonaviy pedagogik kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Raqamli o'yinlardan foydalanish natijasida talabalar faolligi oshadi, ta'lim jarayoni interaktiv tus oladi, bilimlarni o'zlashtirish darajasi yaxshilanadi hamda raqamli savodxonlik rivojlanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida raqamli pedagogik texnologiyalar bo'yicha maxsus treninglar tashkil etish, pedagogika fanlari uchun milliy didaktik o'yin platformalarini yaratish, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini muntazam oshirib borish, ta'lim muassasalarini zamonaviy texnik vositalar bilan ta'minlash hamda masofaviy ta'lim uchun interaktiv o'yin bazalarini kengaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Natijada ta'lim sifati oshadi hamda zamonaviy, kreativ va raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlash imkoniyati kengayadi.

Raqamli va onlayn didaktik o'yinlarning nazariy asoslari

Didaktik o'yinlar – bu ta'lim maqsadlariga yo'naltirilgan maxsus pedagogik faoliyat turi bo'lib, ular orqali o'quvchilarga bilim, ko'nikma va malakalar qiziqarli usulda yetkaziladi. Didaktik o'yinlarning asosiy vazifasi o'quvchilarni faol fikrlashga undash va ta'lim jarayonini interaktiv tashkil etishdan iborat. Raqamli didaktik o'yinlar esa kompyuter, planshet, mobil qurilmalar yoki internet platformalari asosida tashkil etiladigan interaktiv o'yinlardir. Ular multimedia vositalari, animatsiyalar, audio va video elementlar yordamida o'quvchilarni dars jarayoniga jalb qiladi.

Pedagogik nuqtai nazardan, didaktik o'yinlar quyidagi funksiyalarni bajaradi: ta'limiy funksiyasi, rivojlantiruvchi funksiyasi, motivatsion funksiyasi, kommunikativ funksiyasi hamda nazorat va baholash funksiyasi. Shuningdek, o'yin texnologiyalari konstruktivizm nazariyasiga asoslanadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, talaba bilimni tayyor holda emas, balki faoliyat jarayonida mustaqil ravishda egallaydi.

Pedagogika darslarida didaktik o'yinlardan foydalanishning ahamiyati

An'anaviy darslarda ba'zan talabalar passiv tinglovchi sifatida qolib ketadi. Raqamli didaktik o'yinlar esa talabalarni faol ishtirok etishga undaydi. O'yin elementlari – ball to'plash, reyting, mukofot va musobaqa muhiti talabalarni rag'batlantiradi. Motivatsiya kuchaygan sari talabalar bilim olishga ko'proq intiladi va dars jarayonida faol qatnashadi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim samaradorligini oshiradi.

Didaktik o'yinlar orqali o'quvchilar olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniga ega bo'ladilar. Masalan, pedagogik vaziyatlarga oid topshiriqlarni bajarish orqali talabalar real muammolarni hal qilishni o'rganadilar. Takrorlashga asoslangan o'yinlar esa mavzularni mustahkamlashga yordam beradi.

Raqamli o'yinlar ko'pincha muammoli vaziyatlarni o'z ichiga oladi. Talabalar bunday vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qiladi, muammoni tahlil qiladi va eng maqbul yechimni tanlaydi. Bu esa ularda tanqidiy fikrlash, kreativ yondashuv, tahliliy tafakkur hamda mantiqiy xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ko'plab didaktik o'yinlar guruhli shaklda tashkil etiladi. Bu esa talabalarni hamkorlik qilishga, o'zaro fikr almashishga, muloqot madaniyatiga hamda jamoa bilan ishlashga o'rgatadi. Pedagogika yo'nalishidagi talabalar uchun bunday ko'nikmalar juda muhim hisoblanadi.

Bugungi zamonaviy pedagog axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalana olishi kerak. Raqamli didaktik o'yinlar talabalarni turli platformalar va dasturlar bilan ishlashga o'rgatadi. Natijada ularda texnologik kompetensiya, media savodxonlik hamda axborot bilan ishlash madaniyati shakllanadi.

Raqamli didaktik o'yinlarning turlari

Pedagogika darslarida foydalaniladigan raqamli o'yinlarni quyidagi turlarga ajratish mumkin. Test o'yinlari savol-javob asosida tashkil etiladi. Masalan, "Kahoot", "Quizizz" va "Quizlet" platformalari shular jumlasidandir. Simulyatsion o'yinlarda talabalar real pedagogik vaziyatlarni modellashtirish orqali amaliy tajriba orttiradilar. Rolli o'yinlarda talabalar o'qituvchi, o'quvchi yoki ota-ona rolini bajarib, pedagogik muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi. Mantiqiy va strategik o'yinlar esa mantiqiy fikrlash va muammoni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Virtual va onlayn platformalar yordamida masofaviy ta'lim jarayonida interaktiv topshiriqlar bajariladi.

Raqamli didaktik o'yinlardan foydalanishning afzalliklari

Raqamli va onlayn didaktik o'yinlarning quyidagi afzalliklari mavjud: darsning qiziqarli o'tishini ta'minlaydi, talabalar faolligini oshiradi, bilimlarni mustahkamlaydi, mustaqil ta'limni rivojlantiradi, individual yondashuv imkonini yaratadi, baholash jarayonini avtomatlashtiradi, masofaviy ta'limni qo'llab-quvvatlaydi, vaqtni tejaydi hamda o'quvchilar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yaratadi.

Didaktik o'yinlardan foydalanishdagi muammolar

Shunga qaramasdan, ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, texnik vositalarning yetishmasligi, internet tezligining pastligi, ayrim o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasining sustligi, o'yinlarning noto'g'ri tanlanishi hamda talabalarning diqqati faqat o'yinga qaratilib qolishi kuzatiladi. Shu sababli o'qituvchi didaktik o'yinlarni maqsadga muvofiq va pedagogik talabalar asosida tanlashi zarur.

Raqamli va onlayn didaktik o'yinlar pedagogika darslarining samaradorligini oshirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Ular talabalarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, mustaqil va kreativ fikrlashini rivojlantiradi hamda zamonaviy kompetensiyalarni shakllantiradi. Didaktik o'yinlar asosida tashkil etilgan darslar talabalarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy, kommunikativ va ijtimoiy ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashgan o'yinlar zamonaviy pedagoglarni tayyorlashda katta ahamiyatga ega.

Kelajakda ta'lim tizimida innovatsion va interaktiv metodlardan foydalanishni yanada kengaytirish, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish hamda sifatli ta'lim platformalarini yaratish muhim vazifalardan biri bo'lib qoladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kuchkarov, B. (2019). Pedagogik texnologiyalar va ularni ta'limda qo'llash. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
2. Abdullayev, S. (2020). Ta'limda innovatsion texnologiyalar: raqamli o'yinlar va ularning ta'limga ta'siri. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi.
3. Mirzayev, A. (2021). Pedagogika fanida yangi metodlarni tatbiq etish: onlayn ta'lim va didaktik o'yinlar. Toshkent: Ijtimoiy fanlar nashriyoti.
4. Jumaniyozov, M. (2022). Pedagogikada didaktik o'yinlarning roli va ahamiyati. Toshkent: O'zbekiston ta'limi.
5. Yo'ldoshev, J. (2021). Innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya.
6. Usmonov, R. (2023). Raqamli ta'lim muhitida interaktiv metodlardan foydalanish. Samarqand: Tafakkur nashriyoti.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.